Muhandislik-seysmologik tadqiqotlar

Joriy yil 29-30-oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi Yer fizikasi instituti, «Avtomenergoproekt» AJ va «UzGAShKLITI» DUK vakillari ishtirokida amaliy uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Tadbir AESning raqobatbardosh maydonchalari joylashgan hududda seysmotektonik, seysmologik tadqiqotlar natijalarini hamda O’zbekistonda AESni qurish loyihasini asoslash uchun batafsil seysmotektonik, seysmologik va muhandislik-seysmologik tadqiqotlar rejasining muhokamasiga bag‘ishlandi.